



THE UYGHURS IN UZBEKISTAN AND THE HISTORY OF THEIR ENTRY INTO OUR COUNTRY

Zarnigor Abdullayeva

Doctoral Student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Abdullayevazarnigoru14@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Uyghur, "Andijan", Kashgar, East Turkestan, Yettisuv, Fergana Valley

Received: 20.01.25

Accepted: 22.01.25

Published: 24.01.25

Abstract: This article is about the Uyghurs of Uzbekistan and the history of their arrival in Uzbekistan. As a result of the active development of interethnic relations in Uzbekistan over the centuries, our country has become a place for the Uyghurs, along with the Uzbek, Tajik, Kyrgyz, and Karakalpak peoples. The Uyghurs have been establishing blood relations with the local Uzbeks for several centuries.

O'ZBEKISTONDAGI UYG'URLAR VA ULARNING YURTIMIZGA KIRIB KELISH TARIXI

Zarnigor Abdullayeva

doktorantura talabasi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: Abdullayevazarnigoru14@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: uyg'ur, "andijonlik", Koshg'ar, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Farg'ona vodiysi

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonlik uyg'urlar va ularning O'zbekistonga kirib kelish tarixi haqida. Asrlar davomida O'zbekistonda etnoslararo munosabatlar faol rivojlanib borishi natijasida o'zbek, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlari bilan birga uyg'urlar uchun ham yurtimiz bir makon bo'lgan. Uyg'urlar bir necha asrlar davomida mahalliy o'zbeklar bilan birga qon-qarindoshlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda.

УЙГУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИСТОРИЯ ИХ ПРОНИКНОВЕНИЯ В НАШУ СТРАНУ

Зарнигор Абдуллаева

докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Abdullayevazarnigoru14@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Уйгурский, «Андижанлык», Кошгар, Туркестан, Йеттисув, Ферганская долина	Аннотация: Данная статья посвящена уйгурам из Узбекистана и истории их прибытия в Узбекистан. В результате активного развития межнациональных отношений в Узбекистане на протяжении веков наша страна стала местом проживания уйгуров наряду с узбекским, таджикским, киргизским и каракалпакским народами. Уйгуры уже несколько столетий поддерживают кровные связи с местными узбеками.
---	---

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nafaqat titul etnos, balki Respublikada yashovchi turli millat va elatlarga xos xususiyatlar, ularning milliy merosi, tarixiy qadriyatlar va an'alariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da, Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yillik yubiley tantanalarida mamlakat Prezidenti tomonidan Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etish yana bir dolzarb vazifa ekanligi alohida ko'rsatib o'tildi. Uyg'urlar Xitoy Xalq Respublikasi Sins-zyan-Uygur muxtor rayonining tub joy aholisi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarda ular 1990 yillar o'rtalarida 8 milliondan ortiq kishini tashkil etganligi qayd etilgan. Uyg'urlar Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston) shuningdek, Afg'oniston, Pokiston, Hindistonda ham tarqalgan. Uyg'ur tilida so'zlashadi. Uyg'ur (yangi uyg'ur) tili oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga kiradi. Dindorlari, asosan, sunniy musulmonlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda 48 268 nafar uyg'ur millati vakillari istiqomat qilib kelmoqdalar. Bulardan 15 322 tasi Toshkent shahrida, 20 668 nafari Andijon viloyatida va 9 894 nafari Toshkent viloyatida joylashgan.

Uyg'urlarning etnik tarixi Yapon (Yutyanxeng), fransuz (Klaprot) olimlari fikricha, „uyg'ur“ atamasi miloddan avvalgi III-II asrlardan ma'lum. Uyg'urlar etnogenezi Xitoy manbalarida 4-5 ming yil avval tilga olingan „di“ (turk) larning „chidi“ (qizil di – janubiy turk) ga borib taqaladi. Xitoyning shimolida mavjud bo'lgan Chidi davlati miloddan avvalgi 594 yilda szin

(Jin) xonligi tomonidan tugatilgach, chidilar shimolga ketishga majbur bo'lishgan. Uyg'urlar xun qabilaviy ittifoqi (mil. av. III-asr – mil. III – IV asrlar) da muhim rol o'ynaganlar. Milodiy V – VII asrlarda uyg'urlar Jujan (Avar) xonligi, keyinchalik Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VII asrga qadar uyg'urlar tarkibida yog'liqor (xon avlodi), quturg'ur, tur-lam-veybur, buqosqir, ovchag', xazar-qasar, xo'g'ursu, yag'mo, ayovir kabi 9 qabila mavjud bo'lgan. Keyinchalik ularga Sirdaryoning yuqori qismi (Yassi daryosi) da yashagan adiz qabilasi qo'shilishi bilan 10 uyg'ur ittifoqi shakllangan. VII – IX asrlardagi manbalarda 15 uyg'ur qabila uyushmasi (baku, hun, bayirg'u, tungro, sijie, chibni, iz-gil (sije), basmil (bashimi), qarluq (gelulu), sir, tardush, tuva, quvur-qon, barsuk, qirg'iz) qayd etilgan.

Uyg'urlarning O'zbekiston hududiga kirib kelishi

Uyg'urlarning O'zbekiston hududiga kelib joylashishi bir nechta bosqichda kechgan:

Birinchi bosqich , uyg'urlar dastlab O'rta Osiyo hududlarida XV–XVI asrlardan ko'chib kelib boshlaganlar.

Ikkinchi bosqich , XVIII – XIX asrlarda hozirgi O'zbekiston hududlariga ommaviy ko'chishi davri bo'lib, ular qashg'arlik, xotanlik, yorkentlik kabi joy nomlari bilan atalgan.

Uyg'urlar ommaviy ko'chishining uchinchi bosqichi esa 1950-yillar oxiri – 60 - yillar boshlari ga to'g'ri keladi.

1921 yilda uyg'urlarning Toshkentdagi yig'inida umumiy nom bilan "uyg'ur" deb atash qabul qilingan.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududida uyg'urlarning asosiy qismi Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Toshkent shahrida joylashgan va qashg'arliklar, taranchilar va dolonlar kabi hududiy-lokal guruhlardan iborat bo'lgan. Dolonlar uyg'urlarning qirg'izlar bilan assimillatsiyalashgan avlodlari hisoblanadi. Toshkent da Qoshg'ar darvozasi tomonda "Qoshg'ar" mahallasi (hozirga qadar qoshg'ar toponimi shaharda saqlanib qolgan) bor. Ular 127 uy xo'jaligi (o'rtacha bir xo'jalikda besh kishi bo'lgan) ni tashkil etgan. Mahallaning asosiy aholisini Qoshg'ardan ko'chib kelganlar tashkil etgan va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Mahallada bozor, karvon saroy, masjid va boshqa maishiy inshootlar bo'lgan.

XX asrning 20 - yillarida uyg'ur qishloq sovetlari va 1937 yillardan boshlab 60 dan ko'proq uyg'ur kolxozlari tashkil etilgan edi. Turkiy tillardan biri bo'lgan yangi uyg'ur tili asosan, Xitoyning Sinszyan-Uyg'ur muxtor rayonida, shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston respublikalarida, Afg'oniston, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 7,7 million (jumladan, Xitoyda 7,5 million) kishidan ortiq. "Uyg'ur", „Uyg'ur tili“ atamalari 1921 yilda yagona etno-lingvistik jamoa uchun olimlar (S.Ye. Malov) tomonidan taklif etilgan va (avvalgi nomlari: G'arbiy Xitoy tatar tili, Xitoy musulmonlari tili, G'arbiy Xitoyning turkiy lahjalari, Sharqiy Turkiston tili va boshqa) qadimgi uyg'ur tilining

davomchisi hisoblanmaydi. Uygʻur tili 3 lahjaga boʻlinadi: hozirgi adabiy uygʻur tiliga asos boʻlgan markaziy (ili, turfon, qashqar, koʻmul, urumchi, karashar, koʻchor, qoʻrlin oqsu, yorqand shevalaridan iborat); sharqiy (lobnor) va janubiy (xoʻtan). Oʻrta Osiyo va Qozogʻistonda yashovchi uygʻurlarning 2 lahjasi boʻlib, ularning nomlanishida (ili-yettisuv, qashqar-fargʻona shevalari) uygʻurlarning Gʻarbiy Xitoy dan Yettisuv va Fargʻona vodiysiga koʻchib oʻtganliklari aks etgan. Uygʻurlar VII asrgacha qadimgi uygʻur yozuvidan, XI asrgacha soʻgʻd alifbosi ga asoslangan yozuvdan, XI asrdan eʼtiboran arab grafikasi asosidagi yozuvdan foydalanganlar. Oʻrta Osiyo hududida yashagan uygʻurlar 1930 yilgacha arab, 1930-46 yillarda lotin grafikasi asosidagi yozuvdan; 1946 yildan esa rus grafikasi asosidagi yozuvdan unga uygʻur fonemalarini ifodalovchi qoʻshimcha harflar qoʻshgan holda foydalanganlar. Xitoy dagi uygʻurlar hozirgacha arab grafikasi asosidagi yozuvdan foydalanadilar.

Oʻzbekiston uygʻurlari etnografiyasining oʻrganilishi Oʻzbekistonda yashovchi uygʻurlar mavzusi filosoflar, siyosatshunoslar, tilshunoslar, etnograflar tomonidan oʻrganilgan. Uygʻurlarning oʻrganilishi dastlab Sharqiy Turkistonda boʻlgan qator tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan. Sovet hukmronligi yillariga oid dastlabki tadqiqotlar XX asrning 30-50 - yillariga toʻgʻri keladi va ularda Oʻzbekistondagi uygʻurlarga oid boʻlgan qator maʼlumotlar keltirilgan. Jumladan, Ch. Ch. Valixanov, A. N. Kuropatkin, N.Ya. Bichurin, A. Kazembek kabi tadqiqotchilarning asarlarida koʻpgina maʼlumotlar keltirilgan. XX asrning 60-90-yillarida uygʻur millatiga mansub tadqiqotchilar uygʻur xalqining etnik tarixi, tarixiy taqdiri, koʻchishlari, yangi etnik muhit taʼsiri kabi masalalarga bagʻishlangan asarlari paydo boʻldi. Bularga V.F Shaxmatov, Z. L. Amitin-Shapiro, I. M. Yuzbov, M.N Kabirov, M.R Ruziev, R..Qodiriy, U Mamatov, I.Tuxtieva, M Kutlukov, G. Sadvakasov, L. A. Chvir, S.S Gubaeva, Osim Boqi oʻgʻli kabi tadqiqotchilarning ishlarini misol keltirish mumkin. Oʻzbekiston mustaqilligi davrida Qoʻqon xonligi va Sharqiy Turkiston oʻrtasidagi savdo-madaniy aloqalar, Fargʻona vodiysidagi uygʻurlar haqida ham maʼlumotlar berilgan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, G.Valixonovning "Fargʻona vodiysi uygʻurlari: turmush tarzi va madaniyati" asarida asosan vodiylar uygʻurlarining oilaviy maishiy turmushi, moddiy va maʼnaviy madaniyatdagi ayrim jihatlar, uygʻur urf-odat va marosimlar kabi masalalarga eʼtibor qaratilgan. Uygʻurlarning diaspora sifatidagi oʻrni, uning Oʻzbekiston va umuman, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari bilan munosabatlari masalasi R. X. Murtazaeva, M. A. Babaxodjaev, A..Doniyorov, R. R. Nazarov, A. G. Muminov, O. R. Musaev kabi tarixchilar, siyosatshunoslar, filosoflar tomonidan oʻrganilgan.

Uygʻurlarning xoʻjaligi XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda kechgan siyosiy jarayonlar natijasida uygʻur etnik guruhi vakillarining salmoqli qismi Oʻrta Osiyoning asosan ikki mintaqasi – Yettisuv oʻlkasi va Fargʻona vodiysi hududlariga koʻchib oʻtganlar. Sharqiy Turkistonning oʻziga xos tarixiy-madaniy aloqalar markazi boʻlgan Qashqarda

afg'onlar, kashmirliklar, badaxshonliklar, o'zbeklar va boshqa ko'plab xalqlar istiqomat qilganlar. Ular orasida „andijonlik“ (butun vodiylilik o'zbek)lar yetakchi mavqega ega bo'lganlar. „Andijonlik“larning alohida mahallalari bo'lgan, yirik mavzelarda savdo rastalari faoliyat ko'rsatgan. Hozirgi O'zbekiston hududlariga, qisman Qo'qon xonligi hududlariga kelib joylashgan uyg'urlarning asosiy qismi dehqonchilik (donchilik, polizchilik, bog'dorchilik) bilan shug'ullangan. Uy ehtiyojlari uchun chorvachilik bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Ilgari Turkiston hukumati ko'chib kelganlarga sug'orma yerlarni 10 yilga ijaraga berganlar va yig'im hamda soliqlar undirilishi haqida ko'rsatmalar berilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yurtimizdagi o'zbek etnomadaniy muhitida uyg'urlar etnoslararo xo'jalik-madaniy aloqalar ta'sirida o'ziga xos ayrim etnomadaniy an'alarini unutib, mahalliy aholi madaniyatidagi jihatlarni qabul qilgan. Natijada xar ikki etnosning moddiy madaniyatida uyg'unlashuv jarayoni yuz bergan. Uyg'urlarning oilaviy-maishiy turmushi Markaziy Osiyodagi musulmon xalqlari hayotidan keskin farq qilmagan. Kichik oila ustuvorligi bilan birga barcha etnoslarga xos zamonaviylashuv tendensiyasi jadallashgan. Ayni vaqtda, ularning oilaviy marosim va urf-odatlarida ko'plab etnik xususiyatlar o'n yillar davomida saqlanib qolgan. Bu jihatlarda to'y (xatna va nikoh to'yi) va dafn marosimi va urf-odatlarda namoyon bo'lish bilan birga mahalliy an'alar bilan qorishuv, sintezlashuv jarayonlari kuchaygan va ko'plab innovatsiyalar kirib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. 25 январь (№ 18).
2. Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурларида анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Т.:2018
3. Хайназаров Б.Б. Ўзбекистон уйғурлари диаспораси тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Т.:2018
4. Ҳабибулла А. Уйғур этнографияси. – Урумчи: Шинжон халқ нашриёти, 2000. – 443 б.
5. Народы Средней Азии и Казахстана. Том 2.М., 1963.
6. Наринбаев А. Уйгуры // Под небом Кыргызстана. – Бишкек, 1995. – С. 119–129;
7. О'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Т.9. – Toshkent: . О'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2005. – В.437